

TASAVVUF VA BHAKTI HARAKATI TA'LIMOTLARIDA AYOLLARGA MUNOSABAT



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-646-651>

Yulduz G'aniyeva

TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

1 kurs magistranti

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent **Jasur Sulaymonov***

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosiy e'tibor ayollarning tasavvufiy ta'limotlarda va bhakti harakatida tutgan o'rni xususidagi dolzarb mavzuga qaratiladi. Mazkur harakatlarning yuzaga kelishi, o'ziga xos xususiyatlari, ayollarga bo'lgan munosabat qay ko'rinishda ekanligini, amallarni bajarishdagi ularga berilgan erkinliklar kabi masalalar o'rta tashlanib, muhokama qilinadi. Jamiyatda ularga bo'lgan qarashlar va munosabatlar borasida ham fikr va mulohazalar mavjud bo'lib bu aynan gender masalasining o'sha davrdagi ko'rinishi haqidagi tasavvurlarning to'liq bo'lishida muhim o'ringa ega bo'ladi.

Kirish so'zlar: tasavvuf, bhakti, ilohiy ishq, ruhiy kamolot, ayollar, tenglik, erkinlik

KIRISH

Sharq dunyosida tasavvufiy yo'nalishlarning hamda bhakti harakatining ushbu mintaqa kishilarining dunyoqarashiga, siyosiy-ijtimoiy, hayotiga beqiyos ta'sir o'tkazib, butun bir xalqning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim o'ringa ega bo'ldi. Ayni bu ikki harakatning yuzaga kelishi boshqa-boshqa dinlar bag'rida kechgan bo'lsada, ularning insonlarni umumbashariy ezgu g'oyalar ostida birlashtirish kabi umumiy o'ziga xos jihatlari mavjud. Shunisi e'tiborga sazovordirki, har ikki harakat ham yaratuvchini riyo, ikkiyuzlamachiliksiz sevis, insoniyatga yaxshilik ulashish g'oyasini, hamda "Yagona Ilohni sevis" masalasini ilgari surgan. Bundan tashqari ikki harakatdagi gender masalasiga bo'lgan qarashlar ham mavjud va aynan bu masala o'sha davr va jamiyatda, bhakti va tasavvufga bo'lgan e'tiqod, amallarni ochish bilan birga, ayni zamonlarda gender nuqtai nazarining bu harakatlar a'zosi bo'lishidagi o'ziga xos jihatlari, ayollarga bo'lgan munosabatni, ularda qanday erkinliklar va cheklovlar mavjud bo'lganini ham o'rganishga yordam beradi.

O'tgan asrlarda g'oyat murakkab va muhokamalarga sabab bo'lgan gender masalasiga diniy harakatlar va falsafiy ta'limotlarning munosabati qanday edi. Ularda ham gender jihatidan guruhlariga bo'linish yoki cheklashlar mavjud bo'lganmi yo'q, qanday erkinliklar yaratilganligi bugungi kundagi qo'yiladigan asosiy savollardan biridir.

Dastlab bu ikki yo'nalishga gender nuqtai nazaridan tahlil amalga oshirishdan avval ularning tub mohiyati, asosiy jihatlari tahlil qilish lozim. Shunisi aniqki, ikkisining ham yuzaga kelib keng tarqalishiga sabablar bo'lgan va har ikki ta'limotda yaratuvchining yagonaligiga ishoralar bo'lib, riyosiz, cheksiz muhabbat bilan uni sevis masalasi eng yuqori o'rinda turadi.

O'rta asrlarda islom yuzaga kelgandan so'ng insonlarga sof din mohiyatini tushuntirish, keng ommaga turli ixtilofli masalalarni sodda mistik usulda izohlash uchun ham tasavvuf gullab yashnadi. Tasavvuf bu Yaratuvchiga islom dunyosida Allohga bo'lgan sof, chin muhabbatdir, va unda inson ma'lum bir pog'onalarni bosib o'tib kamolotga yetgandan so'ng, uning ruhi, vujudi birinchi sababiyat Alloh bilan birlashib ketadi. U qanchalik poklanib borsa ilohiylikka shunchalik yaqinlashib boradi. Va eng so'nggi bosqichda u mutloq vujud Allohning vasliga erishadi.

Bhakti harakati esa Hindistonda Shuningdek, tashqi bosqinlar natijasida umidsizlikka tushgan xalq va tasavvufiy harakatlarining ham kirib kelishi, bu orqali yagona ilohga bo'lgan ishonch masalasining tobora ommalashuvidan xavsirab hinduiylik dinini saqlashga urinish uni qayta reforma qilish bhaktini yuzaga chiqardi.

Uning dastlabki nomi “Ekantika Dharma” yoki mehr-muhabbat va Bhagavad Gita ta'limotlariga asoslangan yagona zotga bag'ishlanish dini edi.¹ Albatta, uning yuzaga kelishining uzoq tarixiga yuzlanadigan bo'lsak boshqa dinlarning ham ta'sirini sezish mumkin, chunki hind zaminida qadimdan turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar savdo-sotiq, yurishlar natijasida bu hududda doimiy istiqomat qilib qolgan va asosiy tahlilga ko'ra, ikki harakatda ayollar masalasiga to'xtalsak, har ikkisida ham o'z faoliyatlari bilan tarixda qolgan buyuk ayol siymolar bor. Masalan, tasavvufda Robia al-Adavviyani eng mashhur sufiy ayollardan desak, bhakti harakatida Mirabaini ko'rsata olamiz.

METODLAR

Bu harakatlarning ijtimoiy hayotdagi ta'sirini, nafaqat o'sha davr tarixiy, diniy kitoblari balki, ayni harakatlar rivojlanib borgan davrlar adabiyoti, she'riyati orqali yaxshigina anglay olamiz. Ayniqsa, bhakti va tasavvuf namoyondalarining she'rlari yoki asarlarida ayollarga munosabat, jamiyatda, diniy marosim va amaliyotlarda ularning ishtiroki va erkaklarga solishtirganda qanday farqlar mavjudligi, tenglik masalasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Chunki bu harakatlar adabiyotga, she'riyatga shu qadar kuchli ta'sir ettiki, ular orqali butun bir davr adabiyoti shu qadar gullab yashnadiki, hattoki o'rta asrlar hind-musulmon madaniyati va adabiyotini tasavvuf va bhakti harakatlarisiz tasavvur etish juda mushkul.

Ushbu maqolada, shuningdek, tarixiylik, tahliliy, taqqoslovchi (komparativistik) kabi metodlardan keng foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Islom dinining o'zi ayollarga katta huquq va erkinliklar berganligini, ilk islom davrini johiliya ya'ni islomdan avvalgi davr bilan solishtirish orqali anglash mumkin. Ushbu davrda ya'ni arablar ko'pxudolikka e'tiqod qilayotgan bir davrda ayol kishining tug'ilishi katta bir musibat o'rnida ko'rilib, xattoki, ularni tiriklay ko'mib, o'ldirib yuborishgan holatlar ham juda tez-tez uchray turgan. Bu kabi

¹ Mamata Khatua, Dr. Sanjana Singh AN OVERVIEW OF “GENDER EQUALITY” DURING BHAKTI MOVEMENT IN INDIA// Vol-10 Issue-6 2024 IJARIE-ISSN(O)-2395-4396 - 2024. P.3

qabohatga, johilllikka islom dini o‘z qonunlari bilan barham bergan, ayollarning ham yashashga huquqi mavjud ekanligiga, ular ham Alloh yaratgan xilqat, inson ekanligiga urg‘u berdi. Shundan so‘ng asta-sekinlik bilan Arab mamlakatlarida ayollarga bo‘lgan, endi tug‘ilgan begunoh go‘daklarga bo‘lgan bunday xunrezlikka barham berilib, ularning obro‘si dinga ko‘ra jamiyatda yuksaldi.

كَظِيمٌ وَهُوَ مُسَوَّدًا وَجْهُهُ ظِلٌّ بِالْأَنْثَى أَحَدُهُمْ بُشِّرَ وَإِذَا
يَحْكُمُونَ مَا سَاءَ إِلَّا ۖ التُّرَابِ فِي يَدُسُّهُ أَمْ هُوَ عَلَى أَيْمُسِكُهُ ۖ بِهِ بُشِّرَ مَا سُوءٍ مِنَ الْقَوْمِ مِنْ يَتَوَارَى

Qachonki, ulardan biriga qizning xushxabari berilsa, g‘am-alamga to‘lib, yuzi qorayib ketur. Unga berilgan xushxabarning yomonligidan (uyalib) qavmidan berkinur. U(qiz) ni xorlik-la olib qolsammikan yoki tuproqqa ko‘msammikan? Ogoh bo‘ling! Ular qilgan hukm naqadar yomon.

(Nahl surasi 58:59)²

Ana endi islom bag‘rida yetishib, yangi pog‘onaga erishgan tasavvufda ayollarning o‘rniga to‘xtalsak, ruhiy kamolotga erishishda jins ahamiyatga ega bo‘lganmi yoki yo‘q.

Umuman olganda, o‘sha davr adabiyotiga, yozib qoldirilgan diniy va tasavvuf amaliyotiga bag‘ishlangan manbalarning hamda tadqiqotlarning guvohlik berishicha, mazkur harakatda ayollarning o‘rni yuqori darajada bo‘lib, hatto qarama-qarshi jins yoki din vakillari tomonidan diskriminataiyaga uchrashmagan. Amaliyotni bajarish, ibodat qilish jarayonlarida hech qanday qarshiliklar bo‘lmagan. Shu bilan birga ular nafaqat guruh shaklida ham amaliyotlarni ayollar davrasida bajarishgan balki ilk davrlarda erkaklar va ayollar birgalikda "samo" amaliyotlarini ham bajarishgan. "U shuningdek, ayollar mistik ierarxiyada eng yuqori darajadagi muqaddas zotlar bo‘lishi mumkinligini inkor etmadi. Ibn ‘Arabining erta ma‘naviy ta‘limi ayol sufiy qo‘lida bo‘lganligi bunday taxminlarning shakllanishida rol o‘ynagan bo‘lishi ajablanarli emas."³

Ko‘rish mumkinki, hatto jamiyat hayotida, oilaviy muhitda sufiy ayollarning o‘rni, hamda ularning boshqalarga, o‘z zurriyodlariga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ta‘siri katta bo‘lgan. Mashhur tasavvuf nazariyotchilaridan biri Ibn Arabiy ham ularning rolini inkor etmagan va u ayollik elementlariga katta urg‘u bergan masalan, ilk zohidona davr hayotida nafsni ayollik xarakteriga xosligiga ishora qilishgan, bu bilan esa ayollarni qaysidir ma‘noda salbiy jihatlarni ko‘rsatishga harakat qilishgan bo‘lishsa, tasavvuf vakillari Arabiy izohlagan "ذات" ya'ni "mohiyat" so‘zini muannas ekanligi bilan ilohiy hayotda ham ayollik mohiyati yuqori ekanligini tushunishga harakat qilishgan.

Ayollar nafaqat mistik amaliyotlarda erkaklar bilan faol ishtirok etibgina qolmay, bu kabi amaliyotlarni ham boshqarishgan. Ular sufiy ulamolar bilan ham turli yig‘ilishlar, diniy suhbat maqsadida ham muloqot qilib turishgan. Ilk sufiy ayollardan bo‘lgan Robia’ al-Adavviya va Hasan Basriyning o‘rtasida ham bu kabi yig‘ilish, muloqotga misol keltirish mumkin. Bu haqida Hasan Basriy shunday

² Qur‘on tarjimasi, shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Nahl 16:58-59.

³ Camilla Adams Helminski, Woman of Sufism A Hidden Treasure, - Boston & London: - 2003, - P.105.

aytadiki, Bir kechayu, bir kunduz u bilan suhbatlashdik, lekin hayolimdan men erkak kishiman, u ayol degan hayol o'tmadi." Ko'rish mumkinki, tasavvufning mashhur erkak namoyondalari ham ayollarga hurmat, ehtirom bilan qaragan, hamda ularning salohiyatini yuqori baholagan.

Shunday qilib tasavvuf ayollarga an'anaviy islomdan ko'ra ko'proq erkinliklar berdi. Ya'ni bu jarayon ruhiy kamolotga erishishda jinsning roli, ayol yoki erkak bo'lish Allohga yaqin bo'lishga to'sqinlik qilmasligini ko'rsatdi.

Tasavvufiy harakatlarda ayollar masalasi haqida so'z yuritilganda, geografik joylashuv, asriy shakllangan madaniy jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim. Negaki, ma'lum bir hududda tasavvufiy tariqatlar shakllanishi va bu harakatning ichida gender munosabati, tabiiyki, ushbu muntaqada shakllanib qolgan dunyoqashdan ma'lum bir ta'sirlarni qabul qiladi. Jumladan, Boburiy sulolasiga mansub malikalar ham ma'lum tariqatlarga mansub bo'lishgan. Shuningdek, Dara Shikohning katta singlisi, malika Jahonoro (vafoti 1689 yilda) haqida ham o'ylash mumkin, u mistik tajribada shunchalik mukammallikka erishdiki, uning ruhiy ustozlaridan "Molla Shah Badakhshi, agar Qodiriyya tariqatida bu mumkin bo'lganida, uni o'z vorisi qilgan bo'lar edi."⁴

Bhakti harakatida esa ayollar ko'p hollarda yoki oilani yoki o'zi sevgan xudoga ibodat qilib umr o'tkazishni tanlashlariga to'g'ri kelgan. Bu jarayon bhakti harakatining ayol a'zolari hayotida yaqqol ko'zga tashlanadi, jumladan Mira turmushga chiqsada, bu nikohni tan olmagan va o'zini doim xudo Krishnaga bag'ishlagan. Uning bu harakatlaridan norozi bo'lgan oilasi tomonidan esa doimo qarshiliklarga uchrab kelgan. Mirabaidan tashqari ko'plab boshqa bhaktinlar nikohni rad etishgan, nikoh qurilib turmushga chiqsada o'zlari mustaqil ravishta harakatda qaytib amaliyotlarni bajarish maqsadida bevalikni kutishgan. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, oilaviy holat, oila a'zolari bu jarayonda ayollarga izn berishmagan hattoki qattiqroq choralari ham ko'rilgan. Beva bhaktin esa sati odatini rad etgan va beva ayol bajarishi kerak bo'lgan brahmanlik udumlarni bajarishdan bosh tortishgan. Bu kabi holatlarni aynan " Gauri, Mira) kabilar qilishgan.

Bhakti harakatiga mansub faol ayollar erlari vofotidan so'ng bevalikni tan olishmagan, chunki doim o'zlarini xudo bilan erotic munosabatda deb bilishgan.

Aytish mumkinki, bhakti harakatida ayollarning ijtimoiy statusi, jamiyat allaqachon qabul qilgan stereotiplar sababli o'zgarmagan bo'lsada, mistik, hamda adabiy hayotda esa borada bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Ko'pchilik "Bhaktalar" erkaklar Xudoga erishish yo'li sifatida ayoliy sifatlarni tanlagan. Ya'ni ko'proq ayollarga xos Hissiyotlar, sog'inch, azob, g'amxo'rlik, kamtarlik bilan bo'ysunish va sevimli kishiga to'liq taslim bo'lish o'rta asr Hindistondagi Bhakti harakatining muhim xususiyatlari edi. "Xudo er, sevgili, do'st ota va bolalik do'sti sifatida qabul qilingan. Bu sifatlar ayollar tomonidan ishlatilgan va keyinchalik erkak bhaktalar tomonidan qabul qiling."⁵

⁴ Camilla Adams Helminski, Woman of Sufism A Hidden Treasure, Boston & London: - 2003, - P.105.

⁵ Asha Yadav, Women and the bhakti movement: study of Mirabai's and Tulsidas's poetry: dis.

Erkaklar ko‘pincha she‘riyatlarida ayolona uslubdan foydalangan, o‘zlarini xudoga nisbatan ayolona deb ko‘rgan va shu bilan erkaklikning bir qismini tark etgan. Ammo bhaktinlarning hayotidagi hikoyalarda, hatto ularning she‘riyatining o‘ziga xos tabiatida ham, ularning ayolligi saqlanib qolgan. Tana tilining aniq ishlatilishi bhaktinlarning she‘riyatining xususiyatidir.⁶

Bundan ko‘rish mumkinki, ayollarning diniy doiradagi, she‘riyatva adabiyotdagi nufuzi asta-sekinlik bilan biroz bo‘lsada yaxshilangan. Lekin bu holat har doim ham bir xil kechmagan, chunki ortodoksal diniy qarash hind jamiyatoda juda kuchli shakllangan bo‘lib hattoki ba‘zi erkak bhakti shoirlar ayollarning jamiyatda faol bo‘lishlariga qarshi fikrlar bildirib, ularning vazifasi oilasiga xizmat qilish degan qarashlarni bildirishgan.

Dadu Dayal fikricha Ayol faqat eriga xizmat qilganda uyda saqlanishi kerak. Tukaramga ko‘ra esa «Menga ayollar bilan bir davrada bo‘lishimga bermang, chunki ular tufayli men Xudoni ibodat qilishni unutamani va ongim nazoratdan chiqadi», chunki ayolning yagona vazifasi nikoh institutida eriga xizmat qilish edi.⁷

Shuningdek, o‘rta asrlar bhakti harakati hamda adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan Kabir ijodiga va shaxsiy fikriga ko‘ra oilada sadoqatli, o‘zini eriga, farzandlariga bag‘ishlagan, hind an‘anasiga ko‘ra, “qolgan oila a‘zolarini ham ko‘nglini olishga erishgan ayol er uchun aziz bo‘ladi.”⁸

Boshqa bhaktalar ham asosan ayollarning erkaklar bilan teng maqomda bo‘lishi, ibodat va duo amaliyotlarini birga bajarish kabi erkinliklariga qarshi bo‘lishgan, shu bilan birga ularning birdan bir vazifasi eriga xizmat ekanligini ta’kidlaganlar.

Ayni shu kabi g‘oyalar Tulsidas tomonidan ham aytib o‘tilgan, lekin uning asosiy eng yirik asarlaridan bo‘lmish "Ramcharityamas"ida ayollik elementlari, o‘zini xudoga bag‘ishlash orqali yuqori mavqega erishgan ayollarga alohida o‘rin berilganligi, ushbu harakatda bhaktinlar ya‘ni ayol a‘zolarning rolini ko‘rsatadi.

Garchi jamiyat, din, oilada qarshiliklar bo‘lsada ular sof sevgi, o‘zini yagona Yaratuvchiga bag‘ishlashda og‘ishmasdan harakat qildilar. Shuni aytib o‘tish joizki, o‘sha davrda, bu harakatga o‘zini bag‘ishlagan ayollar asrlar davomida oila shanini yerga urgandey, oilada bu ism yana boshqa qizga berilmagan holatlar ham ro‘y bergan. Xususan, bu borada Mirabaiga to‘xtalsak, "uning qo‘shiqlari kuylanishi ham ijtimoiy jihatdan ba‘zi Rajasthan hududlarida taqiqlangan. Hattoki, bugungi kunda ham u oilaviy sharafiga zarar yetkazgan kishi sifatida qaraladi.”⁹

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har ikki harakat ham o‘z doirasi ichida ayollarga katta erkinliklar berib, Yaratuvchini sevishda insonning kim ekanligi,

- New Delhi, India: - 1997. - P.

⁶ Chakravarty Uma, Everyday lives, everyday Histories; Beyond the Kings and Brahmanas of ancient India, - New Delhi.: "Tulika books" 2006 - P.290.

⁷ Asha Yadav, Women and the bhakti movement: study of Mirabai’s and Tulsidas’s poetry:

- New Delhi India: - 1997. P.41.

⁸ Shobha S. C., Medieeval India and Hindi Bhakti poetry, - New Delhi, - P.123.

⁹ Asha Yadav, Women and the bhakti movement: study of Mirabai’s and Tulsidas’s poetry: dis.

- New Delhi, India: - 1997. P.63.

jinsi, tabaqasi muhim emasligini ko'rsatdi. Rasmiy dindan ko'ra ayollarning mavqeini ko'targan, ayollikni quyi darajada emas, balki ilohiy mohiyatni anglashda jins ahamiyatsiz ekanligini amalda isbotlagan tasavvuf ayollarning diniy mavqeini oshirib, tariqatlar ichida ko'plab sufiy ayollarni yetishib chiqishiga, hattoki bugungi kungacha ayollarning ma'lum bir tariqat ichida faoliyat yuritishiga yo'l ochgan. Bu borada bhakti harakatida ham Yaratuvchi yagonaligiga hamda jinsiy tafovutlar u bilan munosabatda bo'lishga, hayotini unga bag'ishlashga to'sqinlik qilmasligiga ishoralar bor. Hattoki, bhakti she'riyatida ayollik elementlariga murojaat qilinishi, bhaktalar ijodida ham o'zini xudoga yaqin tasavvur qilish maqsadida ham o'zlarini ayol sifatlaridan foydalanib ifodalashga urinishgan. Har ikki harakatda ham ayollar insonlar xayolida muxrlanib qolgan qarashlardan yiroqlashib, ilohiylik tomon harakatlanishga intilishgan. Shuningdek, bu harakatlar dinlar yoki ta'limotlarda insonlar haqiqatni gender jihatdan emas balki inson bo'lganligi sababli umumiy mohiyatga ko'ra tushuna olishini yaqqol na'munasi bo'la oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sadiyya Shaikh, Sufi Narratives of intimacy Ibn Arabi, Gender and Sexuality, University of North Caroline Press. - 2012 p.302
2. Chakravarty Uma, Everyday lives, everyday Histories; Beyond the Kings and Brahmanas of ancient India, -New Delhi: "Tulika books" - 2006
3. Asha Yadav, Women and the bhakti movement: study of Mirabai's and Tulsidas's poetry: dis. - New Delhi India -1997
4. Qur'on tarjimasi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
5. Shobha S. C., Medieeval India and Hindi Bhakti poetry, - New Delhi, 1996
6. Camilla Adams Helminski, Woman of Sufism A Hidden Treasure, - Boston & London. - 2003
7. Mamata Khatua, Dr. Sanjana Singh AN OVERVIEW OF “GENDER EQUALITY” DURING BHAKTI MOVEMENT IN INDIA// Vol-10 Issue-6 2024 IJARIE-ISSN(O)-2395-4396 - 2024